

SAMARQAND VILOYATI O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI SOHASIDAGI XALQARO ALOQALARI (1991-2016 YY).

Navoiy innnovatsiyalar universiteti 1-kurs magistri

Fayzullayeva Shaxnoza Baxriddinova

Abstract: This article analyzes the establishment, development, and shortcomings of vocational colleges in the Samarkand region during the years of independence, based on cooperation with international organizations such as the UN, the World Bank, the European Bank for Reconstruction and Development, and the Asian Development Bank.

Keywords: Samarkand, UN, World Bank, European Bank for Reconstruction and Development, Asian Development Bank, UNESCO general education schools.

Annotatsiya: В данном состоянии отсутствует основа для сотрудничества с международными организациями, такими как ООН, Всемирный банк, Европейский банк реконструкции и развития и Азиатский банк развития; создание, развитие и отсутствие профессиональных училищ в Самаркандской области являются самостоятельными процессами.

Ключевые слова: Самарканд, ООН, Всемирный банк, Европейский банк реконструкции и развития, Азиатский банк развития, общественные учебные заведения ЮНЕСКО.

Kirish

Samarqand viloyati ta'lim tizimini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalarning jihozlanishi jahon andozalari me'yorlariga yaqinlashtirish, muhandis - pedagoglarning malakasini bugungi kun talabi darajasiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati BMT, Jahon Banki, Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi bir qator nufuzli tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatib, mamlakat ta'lim tizimiga xorijiy loyihalar jalb qilinmoqda. Keyingi yillarda Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik o'rnatish borasida erishgan yutuqlar natijasida O'zbekistonda xorijiy investorlar ishtirokida bir qancha investitsiya loyihalari amalga oshirildi¹. O'zbekistonda 1996 yildan buyon YUNESKOning umumta'lim maktablari, akademik litsey va o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari qamrab olgan Birlashgan maktablar tarmog'i dasturi faoliyat yuritadi.

Samarqand viloyati YUNESKOning Birlashgan maktablar tarmog'i dasturi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim

¹ Рахимов М. Международная сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в центральной Азии. Тошкент, "Янги нашр", 2011.- 68 с.

boshqarmasi qoshida 1999 yilda innovatsion va ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'limi tashkil etilgan. SHu bo'lim dunyo ta'lim sohasida mavjud ilg'or texnologiyalarni o'rganish, tadqiq etish va ularni o'zimizning ta'lim tizimiga joriy etish ishlarini amalga oshirgan.

2016 yilgacha viloyatda faoliyat olib borayotgan kollej o'qituvchilari 400 ga yaqin o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar, o'quv adabiyotlarni yaratishga muvassar bo'lganlar. Viloyatda yosh kadrlarni ilmiy salohiyatini yuksaltirish maqsadida xorijiy mamlakatlar bilan 27 ta yo'nalish bo'yicha tajriba almashish maqsadida Amerika davlatlaridan AQSH, Kanada, Evropadan davlatlaridan Angliya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Osiyo davlatlaridan Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Hindiston, Malaziya kabi yirik davlatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Xalqaro hamkorlik samarasi o'laroq viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining bir guruh vakillari 2001 yilda Janubiy Koreya respublikasining SIVAT / KOMA xalqaro o'quv markazlarida malaka oshirib qaytganlar².

Keyingi yillarda Samarqand viloyati yoshlarining avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, turizm, iqtisod yo'nalishlariga qiziqishini inobatga olgan holda xorijlik mutaxassislar bilan ushbu sohalar bo'yicha hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Birgina misol, Germaniyaning texnikaviy hamkorlik tashkiloti ko'magida Samarqand shahrida uchta kompyuter texnologiyalari, gidromelioratsiya, axborot texnologiyalari va sanoat hamda aloqa va informatsion texnologiyalari kollejlari moddiy texnik jihatdan ta'minlangan. Hamkorlik natijasida mazkur kollejlarning har biriga 100 dan ziyod eng so'ngi rusumdagi kompyuterlarga ega bo'lishgan. Ushbu kollejlarda o'quvchilarining bitiruv imtihonlarini germaniyalik mutaxassislarning o'zlari kelib olishgan, ularning talablariga javob bergan kollej talabalari esa Germaniyada ishlash huquqini qo'lga kiritishgan³.

Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligiga katta e'tibor berilib kelinmoqda. 2007 yilda Samarqand o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari Yaponiya davlatiga qarashli xalqaro hamkorlik Banki "JBIS"ning imtiyozli krediti doriyasida o'quv xonalari jihozlangan hamda qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari rahbarlari, maxsus fan o'qituvchilari ishtirokida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish" loyihani mustahkamlash uchun maxsus dastur bo'yicha ajratilgan beg'araz yordam loyihasi asosida davra suhbatlari o'tkazilgan. Davra suhbatida Bankning ijtimoiy rivojlanish departamenti bo'lim etakchi mutaxassisi **Naomi Xara, Nagoya universiteti professori YAsushi Xirosato**, "JBIS"ning ta'lim siyosati va rejalashtirish masalalari bo'yicha katta maslahatchisi **Keichi Ogavalor** ishtirok etib, bankning imtiyozli kredit asosida keltirilgan jihozlaridan o'quv jarayonida unumli foydalanish darajasi, ilg'or

² Самарқанд вилоят Ўрта махсус касб-хунар таълим бoшқармасининг жорий архив маълумоти. 31.12. 2017й.

³ "Зарафшон" газетаси, 2008 йил 6 - декабр.

pedagogik texnologiyalardan foydalanish davrida erishilgan natijalari xususida fikr almashganlar⁴.

Rivojlangan davlatlar bilan ta'lim sohasidagi hamkorlik o'zining natijasini bergan. Jumladan, 2008 yilda samarqandlik kollej talabalari informatsion hisobida oltinchi o'rinni qo'lga kiritishgan hamda Samarqand davlat chet tillar instituti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Ma'ruf Karimov bug' dvigatelini yaratib, dunyoning nufuzli tashkilotlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan⁵. Viloyat kollejlarning ijodkor o'qituvchilari tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 18 ta o'quv darsligi yaratilganligi ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilganligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi yoshlarni yangi texnologiyalar asosida ta'lim olishni ta'minlash maqsadida o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarni zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida rivojlangan davlatlar banklarining kredit tizimini jalb qilgan. 2001 yilda Samarqand viloyatida 17 ta kasb-hunar kolleji Janubiy Koreya davlatining birinchi bosqich krediti 2417,7 mln. AQSH dollari hisobidan to'liq jihozlangan. SHu davlatning 2- bosqich 1127,8 mln. AQSH dollar kredit hisobiga 18 ta kasb - hunar kollejlari jumladan, 2001 yilda Samarqand maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Ziyovuddin qurilish va kommunal xo'jalik kasb-hunar kolleji, 2002 yilda Oqtosh qurilish va kommunal xo'jalik kolleji, Ishtixon qurilish va kommunal xo'jalik kasb-hunar kolleji, 2003 yil Kattaqo'rg'on shahar sanoat va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji, Samarqand agroiqtsodiyot kasb-hunar kolleji, 2004 yil Payariq maishiy xizmat ko'rsatish kasb- hunar kolleji, 2005 yil Samarqand agrosanoat kasb-hunar kolleji, 2006 yilda Tayloq maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Pastdarg'om maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Ishtixon maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Bulung'ur sanoat kasb-hunar kolleji, 2007 yilda Bulung'ur maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Nurobod maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Urgut maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejlari jihozlangan⁶. **Osiyo taraqqiyot Bankining 4343 mln. AQSH dollari miqdorida kredit hisobidan 2001 yil Samarqand sartepo turizm kolleji, Payariq qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, YAponiya davlatining 509643 mln Yenyasi(yeniya YAponiya pul biriligi)** miqdorida kredit hisobidan 2000 yil Samarqand qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, Qo'shrabod qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, Bulung'ur qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, Ishtixon tumani, Baxrin qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari, 2001 yilda Kadan qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, yana shu YAponiya davlatining 234,1 ming AQSH dollari granti hisobidan Urgut qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejlari zamonaviy

⁴ “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 26 июл.

⁵ “Зарафшон” газетаси, 2008 йил 6 декабр.

⁶ Самарқанд вилоят ўрта махсус касб-хунарс таълим бошқармасининг жорий архив маълумоти. 01.01.2008 й.

texnologiyalar bilan jihozlangan⁷. **Polsha davlatining 1648,9 mln. AQSH dollari miqdori krediti hisobidan** 9 ta o'rta maxsus, kasb - hunar kollejlari ya'ni 2001 yilda Urgut qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, Jomboy qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, 2003 yilda Kattaqo'rg'on maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, 2004 yilda Payariq engil sanoat kasb-hunar kolleji, Toyloq agrotadbirkorlik kasb-hunar kolleji, Nurobod kichik va o'rta biznes kasb-hunar kolleji, Narpay qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji, 2005 yilda esa Samarqand oziq-ovqat kasb-hunar kollejlari jihozlangan⁸. **Germaniya davlatining KBV Bankining 1781 mln. evro** miqdorida kredit hisobidan 7 ta o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari jihozlangan. Jumladan, 1998 yilda Samarqand axborot infarmatsion texnologiyalari va sanoat kasb-hunar kolleji, 2002 yil Samarqand kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji, 2003 yilda Bulung'ur milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji, 2005 yil Samarqand texnologiyalari (aloqalar) kasb-hunar kolleji, Oqdaryo politexnika kasb-hunar kolleji, Siyob qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejlari, 2009 yilda Pstdarg'om qurilish texnologiyalari kasb-hunar kolleji zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan hamda rekonsturksiya qilingan⁹.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kolleji talabalarini bozor iqtisodiyoti mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish ishlarni olib bormoqda. 2017-2021 yillarda amalga oshiriladigan tadbirlar tufayli o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib kelinmoqda. So'nggi yillarda kollej bitiruvchilari tomonidan o'z biznesini tashkil etishga bo'lgan intilish kuchayib borayotganini yaqqol kuzatish mumkin. Bitiruvchilarning o'z biznesini tashkil etish istagi oshib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Kollejlarda ta'lim –tarbiya ishi zamon talablari darajasida tashkil etilayotgani, xorijiy davlat Banklarning kreditlari asosida o'quv ustaxonalarining sohaga oid eng ilg'or vositalar bilan jihozlanishi bitiruvchilarda o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha etarli bilim va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoni kengayib bormoqda.

2. Kichik biznes va tadbirkorlik davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

3. Kollej bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadida hududlarda "Mikrokreditbank", Savdo-sanoat palatasi, "Kamolot" YoSh bilan hamkorlikda "Yosh tadbirkor –yurtga madadkor", "Mening biznes g'oyam" kabi mavzularda turli seminarlar va ko'rik –tanlovlar tashkil etilmoqda.

⁷ Samarqand viloyat ўрта maxsus kasb-hunar ta'lim bo'sqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 01.01. 2002y.

⁸ Samarqand viloyat ўрта maxsus kasb-hunar ta'lim bo'sqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 01.01.2006y.

⁹ Samarqand viloyat Ўрта maxsus kasb – hunar ta'lim bo'sqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 01.01. 2010 й.

Bugun zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Bu boradagi ishlar izchil va tizimli davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida "Joriy o'quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etilishi belgilandi.